

MA'NAVIY – AXLOQIY QADRYATLAR ASOSIDA YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Elboboyev Yashin Komil o'g'li

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22100461>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar xulq-atvorning yangi ijtimoiy me'yorlari va andazalari paydo bo'lishi hamda o'quvchilarda milliy h, umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaro qilib yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishish, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish, mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirish haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ilmiy, umumbashariy, Qurolli kuchlar, ma'daniy-tarixiy, milliy qadryat, iqtidorli, yaxlit, vatanparvar, Qonun, axloq, inavatsion.

Аннотация: В статье рассматриваются современные общественно-политические изменения, которые приводят к появлению новых общественных норм и стандартов поведения, а также необходимость воспитания у обучающихся высоких духовно-нравственных качеств на основе гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей, воспитания

молодежи в духе воинского патриотизма как преданных граждан своей Родине и народу, внедрения новых управленческих механизмов работы с молодежью, создания вертикальной системы работы с ней, решения молодежных проблем непосредственно в микрорайонах, дальнейшего повышения эффективности духовно-просветительской и воспитательной работы в образовательных учреждениях, содержательной организации досуга молодежи в микрорайонах, популяризации национальных народных игр и видов спорта среди молодежи, реализации пяти важных инициативных проектов, молодежных фестивалей и других культурно-просветительских мероприятий.

Ключевые слова: Научный, общечеловеческий, Вооруженные Силы, культурно-исторический, национальная ценность, талантливый, целостный, патриотический, Право, нравственность, новаторство.

Abstract: This article discusses the current social and political changes that are leading to the emergence of new social norms and standards of behavior, as well as the need to educate high spiritual and moral qualities in students based on the harmonization of national and universal values, to educate young people in the spirit of military patriotism as loyal citizens to their homeland and people, to introduce new management mechanisms for working with youth, to create a vertical system for working with them, to solve youth problems directly in neighborhoods, to further increase the effectiveness of spiritual, educational and educational work in educational institutions, to meaningfully organize youth leisure time in neighborhoods, to popularize national folk games and sports among young people, to implement five important initiative projects, youth festivals and other cultural and educational events.

Keywords: Scientific, universal, Armed Forces, cultural-historical, national value, talented, holistic, patriotic, Law, morality, innovation.



Hozirgi kunda ro'y berayotgan ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar xulq-atvorning yangi ijtimoiy me'yorlari va andazalari paydo bo'lishiga turtki bo'lmoqda. Madaniy-tarixiy qadriyatlar tizimining o'zgarishi esa o'z navbatida, insonning yetakchi qadriyatlari mazmun-mohiyatida aks etadi. Yoshlarni milliy qadriyatlar va madaniyatga bo'lgan tahdidlar hamda yot g'oyalardan asrash, har tomonlama rivojlangan, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, milliy an'analarga sadoqatli, dunyoqarashi keng, vatanparvar va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan "Yosh chegarachilar" klublarining faoliyatini tartibga solish, qo'llab-quvvatlash va aholi orasida ommalashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 26.06.2023 yildagi 261-son qarorlarida ham yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni ko'rsak bo'ladi. Turli tizimlardagi odat va an'analarning to'qnashuvlari natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-normativ mavhumlik to'g'ri va noto'g'ri, ezgulik va yovuzlik, qonun va axloq, erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi chegaralar buzilishiga olib keladi. Ideal olamning abadiy qadriyatlari bilan bir qatorda hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan lokal "bir kunlik", "yanglish qadriyatlar" paydo bo'lmoqda. Hozirgi kun voqeligi shundayki, ma'lum geografik koordinatalarga ega konkret joyda istiqomat qilayotgan inson turli qutbli madaniy an'analarga bosimini his qiladi. Ijtimoiy olamning aksiologik manzarasi bunday qarama-qarshi yo'nalganlikni insoniyat tarixida ilk bor paydo bo'lgani bois, "kim bo'lmoq", "qanday bo'lmoq" tanlovi hudud va an'analardan holi ko'rinishni qabul qilmoqda.

O'quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni qilib shakllantirakgina biz yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishgan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 12.12.2018 yildagi PQ-406 1-son qarorida mamlakatimizda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash, ma'nan yetuk va jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi, sport, shu jumladan, uning texnik va

amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi haqida qarorda belgilab berildi.

Shu bilan birga, Qurolli Kuchlarni jihozlash uchun keltirilayotgan zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahalar darajasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga tezkor va munosib ravishda e'tibor qaratish zarurligini hamda chaqiruvgacha bo'lgan yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, unda mamlakat suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha burch tuyg'usini shakllantirish borasidagi tadbirlar lozim darajada olib borilmayapti.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurati mavjud. Yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, ularning ilm-fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash hamda jahon miqyosida Vatanimiz dovrug'ini keng taratgan buyuk ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.09.2024 yildagi PQ-346-son qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Ma'naviyat – yaxlit bir tizim. Bu tizim o'z navbatida ijtimoiy ong shakllariga mos keladi. Bu tizim huquq, siyosat, din, axloq, estetika, adabiyot, san'at, fan kabi nisbatan mustaqil tuzilmalardan tashkil topgan. Ularning har biri o'z qonuniyat doirasida shakllanib, rivojlanib, bir-birini to'ldirib boradi. O'z navbatida ma'naviyat yaxlit tizim sifatida tarkibiy qismlariga ta'sir o'tkazadi, shu bilan birga qismlar ham



yaxlit tizim – ma'naviyatga ta'sir qiladi. Ma'naviyatga jamiyat taraqqiyotining quyi pog'onalarida ilm-fan, adabiyot va san'atga nisbatan ko'proq axloq, din ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 02.03.2022 yildagi PQ-150-son o'quvchi-yoshlarni tuzilayotgan otryad atrofida birlashtirish va jipslashtirish, ular orasida harbiy-vatanparvarlik, o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda asosiy tashkilotchi sifatida faoliyat yuritish, o'quvchilarda o'qish va intizom bo'yicha yuqori natijalarga erishishga ishtiyoqni uyg'otish hamda ularga o'rnak bo'lish uchun faol harakat qilish hamda ma'naviy axloqiy qadryatlarni shakllantirish borasida yuqori saviyada ishlar olib borildi.

Inson ma'naviy ongi axloqiy his-tuyg'ulardan "unib" chiqadi. Ya'ni insonparvarlik, vatanparvarlik, rahm-shafqat, izzat-hurmat, burch, uyat, g'urur, or-nomus, vijdon azobi, minnatdorlik, zavq-shavq, xursandchilik, baxt, xafagarchilik, qo'rquv kabi his-tuyg'ulardan axloq boshlanadi. Axloqiy his-tuyg'ulardan tashqari, go'zallik, erkinlik, tenghuquqlilik, nafs, hirs, shayton vasvasasi, savob-gunoh va boshqa diniy tuyg'ular ham insonga xosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 28.06.2019 yildagi PQ-4375-sonli qarorida ko'rishimiz mumkinki: Bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.



Vatanparvarlik deganda yurtga muhabbat va sadoqat, yurt uchun xizmat qilish, bu yo'lda butun umr va salohiyatingizni, kerak bo'lsa, joningizni fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha xalqlar, millatlar va elatlarga xos umuminsoniy tuyg'ular va ma'naviy qadriyatlardan biri bo'lib, asrlar osha sayqallanib kelgan. Tarixiy nuqtai nazardan, vatanparvarlik – odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida o'z Vatani taqdiri, xalqlarning o'zi yashayotgan hududning yaxlitligi va mustaqilligi uchun kurashi bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular majmui. Vatanning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, uning kelajagi haqida qayg'urish va qayg'urish, manfaatlarini himoya qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 19.01.2022 yildagi PQ-92-sonli "mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida "Yosh chegarachi", "Yosh qutqaruvchi", "Quvnoq startlar", "Temurbeklar", "To'maris malikalari", "Shunqorlar", "Yosh huquqshunos", "Yosh saylovchi", "Yosh deputat" tanlovlari hamda "Men ham askar bo'laman" aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkillashtirishni ham o'z ichiga oladi

Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, Besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oyasi ostida tashkil etilib, unda qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxslarni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi. Mazkur g'oyaning asosiy mazmun-mohiyati o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va g'ururni yuksaltirish, bebaho boylik – tinchlik va osoyishtalikni asrash va himoya qilish zarurligi kabi fazilatlarni shakllantirish, zarurat bo'lganda, mamlakat suverenitetini himoya qilishga tayyor turish ruhida tarbiyalashdan iborat. Shu o'rinda e'tiboringizni "Harbiy-vatanparvarlik" tushunchasiga qaratmoqchimiz.

Chunki harbiy va vatanparvarlik tushunchalari o'zaro mushtarak bo'lib, ularni bir-biridan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu yaxlit tushunchaning asosiy maqsadi ham yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan bog'liq bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqining taqdiri uchun yuksak mas'uliyat



hamda javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni mustahkamlashdan iborat. "Yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishning milliy ma'naviyat paradigmasini yuksaltirish yo'llari, ya'ni etnopsixologik tahlil qilish, ijtimoiy muhitga asoslanish, kognitiv yondashuv asosida tarbiyalash" usullarini ham ko'rib chiqish tadqiqot ishining ilmiy farazini asoslashga yordam beradi. Milliy ma'naviyat paradigmasi bu har bir millatning ma'naviy qadriyatlarini asos qilib olgan holda milliy qahramonlik obrazlari, tarixiy buyuklik ideologiyasi va milliy qadriyatlar va o'zlikning sofliги g'oyasi asosida birlik va birdamlikka yo'naltirilgan vatanparvarlik tarbiyasi hisoblanadi. Chunki vatanparvarlik uchun vatanda qadrlı tushunchalar bo'lishi talab etiladi. Yani yoshlarni vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda o'z vatanida qadrlı va yuksak ma'noga ega bo'lgan nimadir bo'lishiga urg'u beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 30.06.2020 yildagi PF-6017-sonli farmonida ham yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash vazifalari yuklatilganligi ham yoshlarga bo'lgan e'tiborni kuchayganidan dalolat beradi.

Yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz

rahbari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31-yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta'kidlaganidek: "mamlakatimiz bo'ylab "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakatini tashkil etganimiz hamda barcha umumta'lim maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o'quvchi yoshlarni qamrab olgan guruhlar tuzilgani farzandlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotganini ta'kidlash lozim".

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'alariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz.

"Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harakatining huquqiy asoslari haqida so'z borganda, Prezidentimizning 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni" ga to'xtalish lozim. Farmonga muvofiq, "O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlanga

Dasturning 3-qismida yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan bir qancha bandlar belgilangan. Jumladan, Mudofaa vazirligi huzurida bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatini tashkil etish ko'zda tutilgan.

30-iyun O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni etib belgilanishi ayni vazifalar 2021-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida ilgari surilgan yangi tashabbus va g'oyalarni amalga oshirish hamda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat

dasturida belgilangan vazifalar ijrosini soʻzsiz taʼminlash maqsadi bilan chambarchas bogʻliqdir.

Taʼlim-tarbiya jarayoniga oʻqitishning ilgʻor shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, oʻqitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini taʼminlaydi va yoshlarni vatanga boʻlgan sadoqatini yanada oshiradi.

Davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, "Eng bebaho oliy neʼmat – tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetishimiz, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxt-u kamoli uchun bu ulugʻ boylikni asrab-avaylashimiz lozim. Shu maqsadda yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada koʻproq ahamiyat berishimiz kerak".

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qatʼi nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuygʻusini shakllantirish, ularni oʻz fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yoʻnaltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining koʻp bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining, 25.10.2024 yildagi PQ-369-son qaroriga aytib oʻtilganidak "Vatan tayanchi" bolalar va oʻsmirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatida faol ishtirok etgan hamda davlat umumtaʼlim maktablarini aʼlo baholar bilan tamomlagan har bir "Vatan tayanchi" otryadining bir nafar aʼzosiga Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy taʼlim muassasalariga hamda oliy harbiylashtirilgan taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berish tizimini ham harbiy vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishga asos boʻla oladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan koʻzlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador boʻlgan davlat xizmati turlarida faollik koʻrsatish, tinch va harbiy sharoitda

Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridandir. Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish o'z vataniga mehr sadoqatni uyg'otish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o'quvchilarda barcha qobiliyatni o'sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni davrimizda roy berayotgan o'zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il va qizlarda g'oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko'rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to'g'ri. Ammo, biz bu tuyg'uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo'llagan bo'lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik ma'lum va mashhur tamoyil bo'lib, u insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash esa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoiylarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Bu tamoyil xayoliy tuyg'uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy



xatti-harakatlar majmuidir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy– axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Harbiy vatanparvarlik va aqliy tarbiya o'zaro aloqadorligiobekt hisoblanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki, uni tayyor holda qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir. Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo'lishi hisoblanadi. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarini, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlaridan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamasklik kabi ezgu g'oyalar yotadi. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining , 18.01.2021 yildagi 23-son qarorida Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganligi. yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, vatanparvar, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim va fan sohasining barcha yo'nalishlarida olib borilayotgan islohotlarning asosiy negizida, ertasi hamda poydevori, kelajagi bo'lgan yoshlarning talim-tarbiyasi, vatanparvarligi, qadriyatlari, shuningdek, jamiyat rivojlanishida, bosqichma-bosqich yuksalishida

pedagoglar jamoatchilik orasida ta'lim-tarbiya, qadryat muammolariga qiziqish sezilarli ta'sir etish muhim ahamiyat ega bo'lib bormoqda. Yurtimiz hayotida bir qancha vazifalarning hal etilishi yosh avlodda qadryat, vatanparvarlik hissi rivojlantirish hamda vatanparvar shaxs qiyofasini vujudga keltirish kabi ko'pgina ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, ma'naviy-axloqiy qadryatlarini tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi asosiy o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni //6260-son.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" Qonuni // O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.08.2017 yildagi o'zbekiston respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida 437-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2018 y., 09/18/140/0816-son).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. // Xalq so'zi. 2017 yil 20 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 02.03.2022 yildagi "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qonuni //PQ-150-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 19.01.2022 yildagi mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qonuni// PQ-92-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 30.06.2020 yildagi yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida, Farmoni// PF-6017-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi o'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmoni// PF-5712-son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 25.10.2024 yildagi "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati to'g'risidagi Qarori // PQ-369-son.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining , 18.01.2021 yildagi Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi Qarori//23-son.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 15.03.2017 yildagi Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida Qarori//140-son.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining , 30.09.2024 yildagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori// PQ-346-son .

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 26.06.2023 yildagi Respublika chegaraoldi shahar va tumanlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori//261-son.

16. Rahmonova G "Tafakkur" jurnali, "Ma'naviyat va axloq" maqolasi , 2017-yil 4-son.

17. Saidov.I.M Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i, dotsent, falsafa fanlari doktori (PhD) polkovnik maqola. 2023-yil.



18. Xonimqulov A.R. "Chaqiriqqacha harbiy ta'limy yo'nalishlari talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmni takomillashtirish". Diss.T-2023

19. Kurbaniyazova Z.K."Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogic asoslari". Diss.T-2001.11b.

..